

## LUQMON BO'RIXONNING HIKOYACHILIKDAGI MAHORATI

*Dinora Maxmudova, talaba*

*Ilmiy rahbar: Mohira Sadullayeva*

*Qoraqalpoq davlat universiteti, o'zbek filologiyasi fakulteti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek nasrining taniqli vakili Luqmon Bo'rixonning "Qorxat" va "Ovchi qismati" hikoyalari asosida yozuvchining hikoyachilikdagi uslubi, obraz yaratish mahorati, o'ziga xos individualligi, insoniylik, ezgu fazilatlar, beg'araz tuyg'ular va samimiylik kabi tuyg'ular tasviri masalalar ochib berilgan va tahlilga tortilgan.

**Kalit so'zlar:** hikoya, janr, obraz, individuallik, uslub, metod, ijodkor, nasr.

**Annotation:** In this article, based on the stories "Korkhat" and "Hunter's Fate" by Luqman Borikhon, a well-known representative of modern Uzbek prose, the writer's storytelling style, image creation skills, unique individuality, humanity, good qualities, impartial feelings and sincerity are discussed. Issues such as the image of emotions are revealed and analyzed.

**Key words:** story, genre, image, individuality, style, method, creator, prose.

**Аннотация:** В данной статье на основе рассказов «Корхат» и «Судьба охотника» Лукмана Борихона, известного представителя современной узбекской прозы, стиля повествования писателя, мастерства создания образа, неповторимой индивидуальности, человечности, добрых качеств, беспристрастных чувств и Обсуждается искренность, раскрываются и анализируются такие вопросы, как изображение эмоций.

**Ключевые слова:** рассказ, жанр, образ, индивидуальность, стиль, метод, творец, проза.

Uning ko'plab hikoyalari o'zining badiiyliги, ohanraboligi, tasvirning jozibadorligi bilan o'quvchini o'ziga jalb qiladi. Nosir qalamiga mansub "Qorxat", "Ovchi qismati", "Tumor", "Sut sotuvchi bola", "Sinov muddati", "Qo'noq" hikoyalarida sof insoniy fazilatlar, samimiylik, beg'araz tuyg'ular, hayotning turli xil pog'onalardan iboratligi, beg'uborlik, bolalarning kattalarcha o'y-fikri, hayot qiyinchiliklariga toblanishi kabi mashaqqatlar sodda va ravon tarzda ochib berilishi o'quvchining ilk mutolaasidayoq ko'nglidan joy oladi. Yozuvchi mahorati, uning iste'dodini muallif qalamiga mansub "Qorxat", "Ovchi qismati" nomli ikkita bir xil janrga mansub hikoyalari tahlili orqali guvohi bo'lamiz. "Inson o'zining o'tkinchiligini anglagandan buyon, yashagan umrini abadiylashtirishga urinib keladi. Odamning bu boradagi intilishlari badiiy adabiyotda ayniqsa, yorqin va jozibali yo'sinda namoyon bo'ladi" [1]. Darvoqe, ijodkor ham ushbu hikoyalar orqali qaysidir

ma'no o'z hayoti, balki, tasavvuridagi shaxsni gavdalanirishga urinayotgandir. Ikki hikoyada ham deyarli bir mazmun-g'oya Zarif va Ovchi obrazlari orqali o'ziga xos uslubda ochib beriladi. Ikkala hikoya qahramonlari ham faqat yaxshilikni, atrofdagi insonlarni xursand qilishni ko'zlaydi. Bu yo'lda hatto o'z hayotlarini unutub qo'yishadi. "Ovchi" hikoyasida Zarif hamkasbining masxara qilishi va pichinglariga ham ahamiyat bermasdan, qorning ajibligi va qorxat o'yini haqida o'ylaydi: "Tilla topgan tentakday muncha yal-yal tovlanadi? Yo kimdir lavozimini oshirishga va'da berdimikan? Ha, qorxat ajoyib o'yin-da, – dedi Zarif hamxonasining o'ziga qiziqsinib qarab turganiga e'tibor bermay. – Bu o'yinda yutgan ham yutqazgan ham bab-baravar yayraydi, hayotning ta'mini tuyadi. Uning to'satdan so'zamol bo'lib qolganidan Sayfulla tag'in shubhaga bordi.– Do'stim, bugun tushlikda oz-moz – hamxona tomog'i tagiga namoyishkorona chertib qo'ydi. – A, topdimmi? Zarif Sayfullaning imo-ishoralariga deyarli e'tibor bermadi. Ayni paytda uning yuragi sog'inchmi, qo'msashmi, shunga o'xshash totli hislarga to'lib-toshib borar, tinimsiz hazillashgisi, qah-qah otib kulgisi kelardi. Ko'z o'ngida xuddi qor uchqunlari kabi olis xotiralar charx urib yurar, beg'ubor bolalik qiy-chuvi quloqlari ostida jaranglar edi. Birinchi qor yoqqan kunlari qishloqda chinakam bayramona kayfiyat paydo bo'lardi. Kattayu kichik bir-biriga qorxat yozishar, o'yin qoidasiga ko'ra bir-birini quvlab yurardi. Rosa qiziq bo'lardi-da o'ziyam. "Qorxat yozaman", – xayolidan chaqinday chaqnaab o'tdi uning." [2] Bu jumlar fikrimizning yorqin dalilidir. Hatto u bolaligini qo'msagan holda "Qorxat" o'yinini ham o'ynab, xat yozmoqchi. "Ovchi qismati" hikoyasida esa bosh qahramon bo'lmish Ovchi ayiq oviga chiqqan paytida yuzida qandaydir iz qolganiga qaramasdan ham o'sha kasal mehmon uchun bo'ri oviga chiqishga rozi bo'ladi: "Bolaga tirik bo'rining issiq qonidan ichirish, terisini shilib, ustiga yopintirish kerak ekan... – u shunday deya dag'-dag' qaltirayotgan qo'llarini otam tomon iltijoli cho'zib, tag'in hirqiradi, – "Yo'q" demang, jon ovchi tog'a, dovrug'ingizni eshitib, atay sizni izlab keldik, o'la-o'lguncha xizmatigizda bo'laman. Otam og'ir so'lish olib, xiyol qaddini tikladi. Xonaga og'ir jimlik cho'kdi. Burchakda miltirabgina turgan chiroq battar xira tortganday bo'ldi. Bu orada mehmon bola yostiqqa yonboshlab pinakka ketgandi. Bo'rini tirik tutish qiyin, – dedi otam past, xotirjam ovozda. – Yaradori ham bo'laveradi, – deb shosha-pisha gapga qo'sh soldi mehmon amaki. – Tabibdan so'raganman, yaradori ham bo'laveradi, ishqilib, joni chiqmagan, qoni issiq bo'lsa, bas – Yarador qilish ham qiyin, – dedi otam tobora tundlashib. – Bo'ri juda ziyrak hayvon. Mehmon tag'in yalinishga zo'r berdi:– Endi, bir iloj qiling, jon, ovchi tog'a, noumid qaytarmang, xizmat haqqi xohlaganingizday bo'ladi. Otam qansharidagi chandig'ini qashib ancha payt mum tishlab o'tirdi.– Yaxshi, – dedi nihoyat. – Qani, tong otsin-chi, u yog'iga ham xudo poshsho... bir gap bo'lar" Ovchining ayiq ovidan qolgan izga ham ahamiyat bermasdan o'sha bo'ri oviga rozi bo'ladi. [3]

“Qorxat” hikoyasida xatni kimga yozishni o’ylaydi va anglab yetadi. Hisob bo’limida Zahroga yozadi chunki, 2 yil avval turmushidan ajragan bo’ladi. Shuning uchun uni xursand qilgisi keladi. Qorxat o’yinini o’zgacha va noodatiy bo’lishini istaydi va shu tarzda, biron bir nozik sirini bajarish shartini yozadi. Hikoya so’nggida Zahroni zohiriy xursand qilish ilinjida tasodifan o’z ishidan ajraladi. “Ovchi qismati” hikoyasida esa, mehmon farzandi uchun o’z jonini o’rtaga qo’yadi: “Shu payt otamning qop-qora terga botgan ko‘yi dag‘-dag‘ titrashga tushganini nogoh sezib qoldim! Miltiq, haligina men uzatgan sopol kosa allaqachon yerparchin bo‘lib qorga qorishib yotardi. “Ota-a!” – deya beixtiyor qichqirib yubordim, birdan ichu tashim muzlab. Ammo otam javob bermadi, goh oyoqlari ostida so‘nggi nafasini olayotgan ona bo‘riga, goh shaharlik bolaga javdiray-javdiray qon sachragan qor ustiga behol o‘tirib qoldi. Men ilkis olg‘a otilib, uning yelkalaridan quchdim. “Ota-a, bizni qo‘rqitmang, ota!” U qalin-qalin lablarini qimtib-qimtib gapirmoqchi bo‘ldi, biroq uddalay olmay qo‘l siltab qo‘ydi. Men shunda shunda achchiq bir haqiqatni angladim: otam tildan qolgandi. O‘sha kun kechga yaqin chalajon otamni bir amallab uyga orqaladik. Men yo‘l-yo‘lakay uzuq-yuluq qilib ularga bo‘lgan voqeani aytib berdim. Ovuldoshlarni ham allanechuk vahima bosdi. Ulardan biri “Ovchini qon tutgan”, desa, yana biri “o‘sha shaharlik bolaning kasali yuqqan”ligiga sha‘ma qildi. Ushbu fikrlar fikrimiz dalilidir. Birinchi hikoyada bosh qahramon Zarif Zahroni xursand qilish ilinjida o’z ishidan ajraladi, ikkinchi hikoyada esa, Ovchi o’z hayotidan ajraladi. Dastlab gapira olmay qoladi va bir haftadan so’ng yorug’ olamni tark etadi.

Yuqoridagi hikoyalarda har bir obraz o’ziga xos vazifa bajaryapti. Har ikkala hikoyada bosh qahramon alohida- alohida kasb egasi sifatida tasvirlansa ham, undagi ifodalangan g’oya deyarli hamohang. Hikoyalardagi asosiy maqsad, insonning yaxshilik qilish zamirida o’zini unutib qo’yishi, ishidan va hatto o’z hayotidan ajralishi kabi holatlar ta’sirli, bo’yoqdor va o’quvchini larzaga solidi. Luqmon Bo’rixon odamzot sezimini, uning his-tuyg’ularni g’oyat nozik his qiladi, biroq xarakter iroda yo’nalishini ba’zi o’rinlarda ijtimoiy talablarga bog’lash bilan kifoyalanadi. Eng asosiysi, adib kashf etgan har bir obraz kitobxonda xayrixohlik uyg’otadi, uni ezgulikka undaydi, bu esa adib asarlarining ma’naviy-estetik, tarbiyaviy vazifasini oshiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Йўлдошев Қ. Ёنيқ сўз. –Тошкент: “Янги аср авлоди”. 2006. Б. 402
2. L. Bo’rixon. “Quyosh hali botmagan” qissa va hikoyalar to’plami. T-2015.
3. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. Тошкент. Шарқ.2004.Б.245.